O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SOTIBOLDIYEVA GULCHAROS MURAT QIZI

BADIIY MATN TARJIMASIDA LEKSIK TRANSFORMATSIYALARNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI(INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMALAR MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Sotiboldiyeva Gulcharos Murat qizi
Badiiy matn tarjimasida leksik transformatsiyalarning kommunikativ xususiyatlari (ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimalar misolida) ……3

Сотиболдиева Гулчарос Мурат кизи
Коммуникативные особенности лексических трансформаций в художественном переводе (на материале переводов с английского языка на узбекский) 25

Sotiboldiyeva Gulcharos Murat qizi
Communicative Features of Lexical Transformations in Literary Translation (on the Example of Translations from English into Uzbek) ….……..49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..…..53

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SOTIBOLDIYEVA GULCHAROS MURAT QIZI

BADIIY MATN TARJIMASIDA LEKSIK TRANSFORMATSIYALARNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI(INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMALAR MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5128 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash web-sahifasining www.uzswlu.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yo‘ldoshev Ulug‘bek Ravshanbekovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2026 yil «____»_____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____»_____da tarqatildi.

(2026 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

A.A.Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

X.B.Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

D.M.Teshabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligida badiiy tarjimani semantik, pragmatik, uslubiy va lingvomadaniy omillar uyg‘unligida tadqiq etish, asliyatning kommunikativ vazifasi hamda badiiy-estetik ta’sirini tarjima matnida qayta yaratishga qaratilgan funksional yondashuvlarga e’tibor kuchaymoqda. Biroq badiiy matndagi obrazli, emotsional-ekspressiv va milliy-madaniy birliklarni tarjimada tabiiy ifodalash, asliyatning denotativ va konnotativ mazmunini saqlash hamda leksik transformatsiyalarni tanlashning aniq mezonlarini belgilash bilan bog‘liq muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun asliyat va tarjima matnlaridagi leksik birliklarni qiyosiy-semantik va funksional jihatdan tahlil qilish, tillararo tafovutlarni aniqlash, ularga muvofiq transformatsiyalarni tizimlashtirish hamda ularning semantik ekvivalentlik, uslubiy uyg‘unlik va kommunikativ adekvatlikni ta’minlashdagi imkoniyatlarini ilmiy asoslash zarurati yuzaga kelmoqda.

Dunyo tarjimashunosligida badiiy tarjimani tadqiq etish ko‘lami an’anaviy lingvistik tahlildan kengayib, korpus texnologiyalari, raqamli vositalar, sun’iy intellekt imkoniyatlari hamda tarjima mahsulini qabul qiluvchi auditoriya reaksiyasini o‘rganishga asoslangan yangi tadqiqot yo‘nalishlari bilan boyib bormoqda. Hozirgi bosqichda katta hajmdagi parallel matnlar asosida tarjima qonuniyatlarini aniqlash va natijalarni miqdoriy-statistik usullar bilan asoslash; tarjima qarorlarini kontekst, janr va adresat omillari bilan bog‘liq holda baholash; inson tarjimasi, mashina tarjimasi va sun’iy intellekt asosidagi tarjima natijalarini qiyosiy o‘rganish ustuvor yo‘nalishlar sifatida rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalishlarning rivojlantirilishi tarjima jarayonida yuzaga keladigan lisoniy va madaniy tafovutlarni empirik materiallar asosida aniqlash, tarjimon qarorlarining samaradorligini obyektiv mezonlar orqali baholash hamda badiiy tarjimani tadqiq etishda an’anaviy sifat tahlilini zamonaviy empirik va raqamli metodlar bilan uyg‘unlashtirish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini takomillashtirish, davlat tilining xalqaro nufuzini oshirish, xorijiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ko‘lamini kengaytirish, professional tarjimonlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “Davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish metodikalarini yaratish ham uning asosiy vazifalaridan biri bo‘ladi” [1], deb belgilanishi professional tarjimaning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish badiiy tarjimada asliyatning semantik, uslubiy va milliy-madaniy xususiyatlarini saqlashga xizmat qiluvchi tarjima mexanizmlarini takomillashtirish, ingliz va o‘zbek tillari

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori.www.lex.uz.

o‘rtasidagi leksik-semantik tafovutlarni tizimli o‘rganish, leksik transformatsiyalarni tanlash va qo‘llash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning kommunikativ adekvatlikni ta’minlashdagi funksional imkoniyatlarini ilmiy asoslashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[2] Farmoni, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3] gi, 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” [4] gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [5] gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[6] qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-sonli “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[7] qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tarjimashunosligida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar turli metodologik yo‘nalishlar asosida rivojlangan bo‘lib, ularni shartli ravishda bir necha konseptual guruhlarga ajratish mumkin. Ekvivalentlik nazariyasi vakillari Y.Nayda, M. Baker, J.Vinay va

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 10-apreldagi 58-son Farmon. www.lex.uz.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2026-yil 10-apreldagi PF-98-son Farmoni. www.lex.uz.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori.www.lex.uz.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarori.www.lex.uz

[7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-sonli “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.www.lex.uz.

P. Nyumark[8] tarjimaning asosiy mezoni sifatida mazmun hamda funksional moslikni e'tirof etsalar, funksional yo'nalish namoyandalari J.Haus, Ch.Nord, B.Hatim va J.Munday, L.Venuti, S.Basnet, H.Hurtado Albir, R.Berman, T.Savory va J.Delabastita [9] tarjimani matnning kommunikativ vazifasi, adresat ehtiyoji hamda tarjima maqsadi bilan bog'liq holda talqin qilib, ekvivalentlikdan ko'ra funksional adekvatlikni muhimroq mezon sifatida baholaydilar. Biroq mazkur yondashuvlarda ekvivalentlik yoki funksional maqsadga beriladigan ustuvorlik, madaniy moslashtirishning chegaralari hamda tarjimonning asl matnga sodiqlik va tarjima erkinligi masalalarida yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan.

Shu bilan birga, rus tarjimashunoslik maktabi vakillari ham mazkur yo'nalishda salmoqli ilmiy natijalarga erishgan. Jumladan, L.Barxudarov, V.Komissarov va A.Fyodorov [10] tarjima jarayonini tillararo transformatsiyalar hamda ekvivalentlik tamoyillari asosida izohlab, leksik va grammatik transformatsiyalarni adekvat tarjimaning asosiy vositasi sifatida baholaydilar. Y. Retsker, V.Vinogradov, K.Latyshev, L.Nelyubin[11] esa tarjima jarayonini pragmatik, uslubiy va madaniy omillar bilan bog'lab, matnning kommunikativ vazifasi hamda adresatga yo'naltirilganlikni muhim mezon sifatida e'tirof etadilar. L.Gubochkina, A.Djaniyeva, A.Oleynik va N.Trofimova-Kovalenko [12] tadqiqotlarida esa badiiy matnlardagi leksik transformatsiyalarning semantik-funksional xususiyatlari, kontekstga moslashuvi hamda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni qayta yaratish usullari tahlil qilinadi. Lingvistik maktab vakillari ekvivalentlik va strukturaviy moslikni ustuvor deb hisoblasalar, funksional yo'nalish tarafdorlari kommunikativ natija va pragmatik moslashuvni asosiy mezon sifatida talqin qiladilar. Natijada asl

---

[8] Nida E. Towards a Science of Translating. – Leiden, 1964. – 331 p.; Nida E. The Nature of Dynamic Equivalence in Translating//La traduction, une profession. Actes du VIII – e congress Mondial de la FIT, Montreal, 1977.; Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London: Taylor & Francis e-Library, 2011. – 353 p.; Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l'anglais, Methode de Traduction. Paris, 1958.; Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, (1988/1995). – 292 p.;

[9] House J. Translation quality assessment: past and present. London: Routledge, 2015. – 90 p.; Nord C. Translating as a Purposeful Activity. Functionalist Approaches Explained. 2nd revised and updated edition. – London: Routledge, 2018. – 164 p.; Hatim B., Munday J. Translation: An Advanced Resource Book. – London; New York: Routledge, 2004. – 373 p. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge, 1995. – 353 p.; Bassnett S. Translation studies. 3rd edition. – London and New York. Taylor & Francis e– Library, 2005. – 176 p.; Hurtado Albir A. La traductología: lingüística y traductología. Trans 1, 1996. 696 p.; Berman R. H. The Role of Translation in Cultural Diplomacy and International Relations. International Journal of Translation, 15 (2), 2000, – pp 56– 67.; Savory T. The Art of Translation. – London: Cape, 1968. – 191 p.; Delabastita J. There's a Double Tongue: An Investigation into the Translation of Shakespeare's Wordplay, with Special Reference to Hamlet. – Amsterdam; Atlanta: Rodopi, 1993. – 522 p.

[10] Бархударов Л.С Общелингвистическое значение теории перевода//Теория и критика перевода. – М.: Изд– во ЛГУ, 1962. – 196 с.; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М., 2004. – 424 с.; Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1968. – 400 с.

[11] Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974.–216 с.; Виноградов В.С. Перевод: Общие и лексические вопросы. – М.: Книжные дом, Университет, 2006. – 236 с; Латышев Л.К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения – М.: Междунар. отношения, 1981. – 81 с.; Нелюбин Н.Н. Толковый переводоведческий словарь. – М.: Наука, 2003. – 110 с.

[12] Губочкина Л.Ю. Особенности лексико-семантических и лексико-стилистических трансформаций при переводе художественной литературы: на материале сказок О. Уайлда: автореф. дисс. канд. филол. наук. – М.: 2009. – 28 с.; Олейник А. Ю. Переводческие трансформации в текстовом дискурсе. – М.: 2009.; Джаныева А.Б. Лексико-грамматические трансформации при переводе художественной литературы. – М.: 2024.; Трофимова-Коваленко Н.И. Типы трансформаций при переводе американской художественной прозы на русский язык: автореф. дисс. канд. филол. наук. – М.: 2023. – 28 с.

matnga maksimal sodiqlikni saqlash yoki adresatning ehtiyojlaridan kelib chiqib erkinroq tarjima qilish, shuningdek, milliy-madaniy birliklarni bevosita berish yoki moslashtirish masalalarida yagona ilmiy qarash shakllanmagan.

O‘zbek tarjimashunosligida tarjima nazariyasi va amaliyoti izchil rivojlanib, bu yo‘nalishda G‘.Salomov, N.Komilov, Sh.Safarov, K.Jo‘rayev[13] kabi olimlar umumiy nazariy va metodologik asoslarni ishlab chiqqan bo‘lsalar, Q.Musayev, M.Xolbekov, I.To‘xtasinov, G‘.Rahimov, G.Odilova, Y.Egamova, M.Bakoyeva, H.Yusupova, Z.Teshaboyeva, M.Yo‘ldosheva[14] singari tadqiqotchilar o‘z izlanishlarida badiiy tarjima matnlarida uchraydigan murakkab muammolar, turfa til birliklari hamda ularning lingvokulturologik mazmunini tahlil qilganlar. U.Yo‘ldoshev, U. Maqsudov, M. Raupova, U.Matmurodova[15] larning ishlari esa tarjima jarayonini ko‘p qirrali kommunikativ hodisa sifatida talqin etish, transformatsiyalarning turlari va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarining nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati transformatsiyalarning alohida turlari yoki badiiy matnning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarda leksik transformatsiyalarning kommunikativ adekvatlikni ta’minlashdagi o‘rni, ularni tanlash mezonlari hamda semantik, pragmatik va uslubiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi kompleks yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yevropa funksional tarjimashunosligi vakillari kommunikativ xususiyat tushunchasini tarjima maqsadi, matn funksiyasi va adresat ehtiyojlarini belgilovchi pragmatik kategoriya sifatida izohlasalar, ekvivalentlik nazariyasi tarafdorlari mazkur hodisani asliyat mazmuni hamda o‘quvchiga ko‘rsatiladigan funksional ta’sirning muvofiqligi bilan bog‘laydilar. Rus tarjimashunoslik maktabi esa kommunikativlikni lingvistik ekvivalentlik, uslubiy moslik va kontekstual adekvatlikning uzviy birligi sifatida baholab, transformatsiyalarni ushbu uyg‘unlikka

---

[13] Salomov G‘. Til va tarjima (badiiy tarjimaning umumfilologik va ba’zi lingvistik masalalari). – T.: Fan, 1966. – 385 b.; Salomov G‘., Komilov N. Do‘stlik ko‘priklari (Poeziya va tarjima). – T.: Adabiyot va san’at, 1979. – 224 b.; Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. – T.: Navro‘z, 2019. – 300 b.; Jo‘rayev K. Tarjima san’ati. – T.: Fan, 1982. – 60 b.

[14] Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.; Xolbekov M. Jahon tarjimachiligi an’analari. Risola. – T.: Navro‘z DUK, 2016. – 116 b.; Egamova Y. Asl nusxadagi qahramonlar obrazini badiiy tarjimada qayta yaratish masalalari: filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 1974. – 95 b.; Bakoyeva M.K. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga she’riy tarjimalarning ayrim masalalari. – T.: Fan, 1994. – 49 b.; Yusupova X.U. O‘zbek xalq og‘zaki nasri namunalarining inglizcha tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi (ertaklar, latifalar misolida): filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 60 b.; To‘xtasinov I. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: ped. fan. b. f. dok. diss. – Toshkent, 2018. –134 b.; Teshaboyeva Z. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy– madaniy xususiyatlari: filol. fan. f. d. diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 20 b.; Odilova G. Ingliz va o‘zbek mumtoz she’riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari: filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2011. – 26 b.; Yo‘ldosheva M. Badiiy tarjimada portret tasvirlovchi til birliklarining lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlari: filol. fan. b.f.dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 20 b.;

[15] Yo‘ldoshev U.R. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida): filol. fan. b.f. dok. – Toshkent, 2017. – 45 b.; Maqsudov U. Межъязыковая асимметрия и переводческая трансформация в художественном тексте таджикского и английского языков: filol. fan. b.f.dok. diss. avtoref. – Dushanbe: 2024. – 55 b.; Raupova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada transformatsiya hodisasi: lingvokulturologik tadqiq: filol. fan. b.f.dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 55 b.; Matmurodova U. Tarjima transformatsiyalari ekvivalentlikka erishishning maxsus turi sifatida: filol. fan. b.f.dok. diss. avtoref. – Jizzax, 2025. – 55 b.

erishish vositasi deb hisoblaydi. Biroq mavjud yondashuvlarda leksik transformatsiyalarning badiiy matnda kommunikativ natijani ta’minlashdagi ichki funksional mexanizmi kompleks tarzda yoritilmagan. Shu bois dissertatsiyada leksik transformatsiyalar kommunikativ adekvatlikni ta’minlovchi semantik, pragmatik va uslubiy omillarning integrativ tizimi sifatida asoslanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-204-4-5 “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” ilmiy loyihasining “Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalarning kommunikativ xususiyatlarini aniqlash hamda ularning kommunikativ adekvatlikni ta’minlashdagi funksional mexanizmini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

badiiy tarjimada mavjud nazariy modellarning qiyosiy-funksional tahlili asosida transformatsion model takomillashtirish, uning ma’no moslashuvi, semantik siljish va konseptual ekvivalentlikni ta’minlashdagi funksional imkoniyatlarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillari leksik tizimida semantik tafovutlarni, denotativ va konnotativ ma’nolarni tahlil qilish, badiiy tarjimada ekvivalentlik, adekvatlik, muqobillikni ta’minlashda leksik transformatsiyalarning kommunikativ vazifasini misollar bilan yoritib berish;

ingliz va o‘zbek tillarida tarjima transformatsiyalarining fonetik, sintaktik, leksik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini qiyoslash, tarjima matnida semantik muvozanatni ta’minlovchi asosiy transformatsion vositalarni ilmiy jihatdan asoslab berish;

badiiy tarjimada qo‘llaniladigan interpretatsiya, implikatsiya va modulyatsiya usullarining qo‘llanish mexanizmlarini tizimli tahlil qilish hamda ushbu leksik transformatsiyalarning tarjima jarayonidagi samaradorligini aniq mezonlar asosida belgilash.

Tadqiqot obyekti badiiy tarjimada qo‘llanadigan leksik transformatsiyalar.

Tadqiqot predmeti badiiy matn tarjimasida qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalarning kommunikativ va funksional xususiyatlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-chog‘ishtirma, transformatsion, kontekstual va tasniflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy tarjimada mavjud nazariy modellarning qiyosiy-funksional tahlili asosida transformatsion model takomillashtirilib, uning ma’no moslashuvi, semantik siljish va konseptual ekvivalentlikni ta’minlashdagi funksional imkoniyatlari dalillangan;

tarjima transformatsiyalarining mavjud lingvistik tasniflarini semantik, kontekstual va pragmatik mezonlar bo‘yicha qayta tizimlashtirish asosida leksik

transformatsiyalarning asliyat mazmuni, uslubiy xususiyatlari va kommunikativ maqsadini tarjima tilida muvofiq qayta ifodalash, kommunikativ adekvatlikni ta’minlashdagi funksional ustuvorligi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida tarjima transformatsiyalarining fonetik, sintaktik, leksik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini qiyoslash orqali konnotativ ma’no nomutanosibliklarini bartaraf etishda leksik va pragmatik transformatsiyalarning boshqa transformatsiya turlariga nisbatan ustunligi aniqlangan;

badiiy tarjimada interpretatsiya, implikatsiya va modulyatsiya tarjima usullaridan intensiv samarali foydalanish va deskriptiv tahlil usuliga integratsiya qilish orqali asliyat matnidagi idiomatiklik, obrazli ifoda, semantik moslik va kommunikativ ta’sirni tarjima matnida to’laqonli reprezentatsiya qilinishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjima jarayonida qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalarni tahlil qilish va namoyish etishga mo‘ljallangan interaktiv miniplatforma ishlab chiqildi. Platformada badiiy matnlardan tanlab olingan misollar asosida leksik transformatsiyalarning qo‘llanish mexanizmi, semantik o‘zgarishlari hamda tarjimadagi funksional ahamiyati tizimli ravishda yoritildi. Asliyat matni va uning o‘zbek tilidagi tarjimasi qiyosiy shaklda joylashtirilib, har bir tarjima birligida qo‘llangan transformatsiya turi alohida belgilandi. Jumladan, aniqlashtirish, umumlashtirish, analogiya, transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash va tavsifiy tarjima kabi leksik transformatsiyalarning qo‘llanish holatlari amaliy misollar asosida izohlandi. Bu esa tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va uslubiy tafovutlarni aniqlash hamda ularni adekvat tarzda bartaraf etish imkonini berdi;

mazkur platforma ilmiy-amaliy jihatdan tarjima transformatsiyalarining qo‘llanish qonuniyatlarini vizual va qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u tarjimashunoslik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchilar hamda amaliy tarjimonlar uchun o‘quv-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin. Platforma yordamida badiiy tarjimada leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma’nolarni saqlash, milliy-madaniy komponentlarni uzatish hamda funksional ekvivalentlikni ta’minlash masalalarini amaliy jihatdan kuzatish mumkin bo‘ldi. Tadqiqot doirasida yaratilgan ushbu miniplatforma tarjima transformatsiyalarini raqamli muhitda tizimlashtirish va ularni interaktiv shaklda tahlil qilish imkonini beruvchi innovatsion amaliy yechim sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy-nazariy asoslar mantiqiy jihatdan asoslangan bo‘lib, tarjimashunoslik sohasida amalga oshirilgan ilmiy izlanish materiallaridan samarali va maqsadga muvofiq tarzda foydalanilgan. Olingan natijalar dissertatsiya ishining ilmiy-nazariy xulosalariga mos keladi, xulosalar hamda tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan va tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada leksik transformatsiyalarning kommunikativ xususiyatlari, funksional imkoniyatlari va ularni tanlash

mezonlarining nazariy jihatdan asoslanganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik tafovutlarning lingvistik va ekstralingvistik omillarini aniqlash, ularni tegishli transformatsiyalar vositasida bartaraf etish mexanizmlarini tizimlashtirish hamda semantik ekvivalentlik, kommunikativ adekvatlik va uslubiy muvozanatni ta’minlashning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalaridan “Tarjima nazariyasi”, “Tarjimaning lingvistik muammolari”, “Qiyosiy-tipologik tilshunoslik va tarjimashunoslik”, “Tarjimaning lingvistik nazariyalari”, “Tarjimaning leksik-semantik sathidagi transformatsiyalari” hamda “Lingvistik tarjimashunoslik va tarjima sharhi” kabi o‘quv fanlari bo‘yicha amaliy va seminar mashg‘ulotlarda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matn tarjimasida leksik transformatsiyalarning kommunikativ, funksional va semantik xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

badiiy tarjimada mavjud nazariy modellarning qiyosiy-funksional tahlili asosida transformatsion model takomillashtirilib, uning ma’no moslashuvi, semantik siljish va konseptual ekvivalentlikni ta’minlashdagi funksional imkoniyatlari amaliy misollar bilan dalillanganligiga oid tavsiyalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2020-2022- yillarga mo‘ljallangan Britaniya Kengashi (British Council) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan 1683580-raqamli “English as a school subject” nomli xalqaro loyiha doirasida ham foydalanilgan. (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 10-noyabrdagi 04-04-1/6489-son ma’lumotnomasi). Natijada leksik transformatsiyalarning kommunikativ xususiyatlari tahlili asosida olingan ilmiy xulosa va takliflar loyiha doirasida ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan;

tarjima transformatsiyalarining mavjud lingvistik tasniflarini semantik, kontekstual va pragmatik mezonlar bo‘yicha qayta tizimlashtirish asosida leksik transformatsiyalarning asliyat mazmuni, uslubiy xususiyatlari va kommunikativ maqsadini tarjima tilida muvofiq qayta ifodalash, kommunikativ adekvatlikni ta’minlashdagi funksional ustuvorligi asoslanganligiga oid tavsiyalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan (PF-201912258 raqamli) “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-oktabrdagi 04/1-5171-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan elektron platformada semantik tafovutlardan kelib chiqadigan tarjima xatolari kamaytirilishiga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida tarjima transformatsiyalarining fonetik, sintaktik, leksik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini qiyoslash orqali konnotativ ma’no nomutanosibliklarini bartaraf etishda leksik va pragmatik transformatsiyalarning boshqa transformatsiya turlariga nisbatan ustunligi aniqlanganligiga doir xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan Gumboldt universiteti (Germaniya) bilan

hamkorlikdagi Erasmus+ International KA107 Credit Mobility amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-oktabrdagi 04/1-5172-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy tarjimada transformatsiyalarni tanlash va qo‘llash jarayonini tizimlashtirish asosida olingan ilmiy xulosa va takliflar loyiha doirasida ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan;

badiiy tarjimada interpretatsiya, implikatsiya va modulyatsiya tarjima usullaridan intensiv samarali foydalanish va deskriptiv tahlil usuliga integratsiya qilish orqali asliyat matnidagi idiomatiklik, obrazli ifoda, semantik moslik va kommunikativ ta’sirni tarjima matnida to’laqonli reprezentatsiya qilinishi dalillanganligiga doir xulosalardan tavsiyalaridan O‘zbekiston davlat jahon tillar universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh Davlat Departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021GR3106-raqamli “English Access Microscholarship Program” xalqaro loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 11-noyabrdagi 04-01/6525-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy tarjimada ma’no moslashuvi, semantik siljish va konseptual ekvivalentlikni ta’minlovchi strategiyalar tizimi loyiha o‘quv jarayonida tatbiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta ilmiy-amaliy konferensiya, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 5 ta xorijiy jurnallarda, 4 ta ilmiy tezis respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining “**Tarjima va transformatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyati”** deb nomlangan birinchi bobida badiiy tarjima va uning nazariy asoslari, tarjima transformatsiyalarining badiiy tarjimadagi o‘rni hamda kommunikativ tarjimaga erishishda transformatsiyalarning ahamiyati masalalari yoritilgan.

Tarjima – tillararo transformatsiyalar majmuasidir, chunki bir tildan ikkinchi tilga biror parchani o‘girganda biz bevosita asliyat (source language) tilidagi matn mazmunini tarjima tiliga (target language) ko‘chiramiz, ya’ni transformatsiya qilamiz. Tarjimashunos olimlar J.Vinay va J.Darbelne, P.Nyumarklar [16] bu tushunchalarni tarjima jarayonlari deb talqin etishsa, E.Aznaurova, L.Barxudarov, V.Komissarov va N.Qambarovlar[17] tarjima transformatsiyalari deb ta’kidlashadi. L.Molina va H.Albir, M.Ordudarilar [18] esa bu tushunchalarga nisbatan tarjima usullari terminini qo‘llaydilar. U.Yo‘ldoshev matnning kichik birliklarini o‘girishga mo‘ljallangan tarjima metodlariga nisbatan tarjima transformatsiyalari terminini qo‘llagan [19] . Tarjimashunoslikda tarjima “metodi”, “usuli”, “strategiyasi”, “transformatsiyasi”, “protsedurasi” va “tadbil” singari terminlar mavjud bo‘lib, ular deyarli bir vazifani bajaradigandek ko‘rinadi. A.Hurtadoning fikricha, “tarjima metodi, tarjima strategiyasi va tarjima transformatsiyasi bir-biridan farq qiladigan kategoriyalardir”.[20] Uning fikriga qo‘shilgan holda, U.Yo‘ldoshev quyidagi fikrni bildirgan: “Tarjima jarayonida mazkur terminlar vazifasi jihatidan bir-biridan farq qiladi, ya’ni tarjima metodi butun matnga nisbatan, tarjima transformatsiyasi matndagi kichik leksik birliklarga nisbatan tanlanadi. Tarjima strategiyasi yuqoridagi tanlovlarni rejalashtirishni belgilab beradi”.[21]

N.Nelyubinning lug‘atida “tarjima metodi tarjima usulidan farq qiladi va keng omma tomonidan qabul qilingan qonuniyatlarga asoslanmaydi, biroq tarjima turi va usullarini hisobga olib, tarjimon tomonidan biror maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro bir-biriga aloqador usullar tizimini amalga oshirish jarayoni”[22] deb ta’riflanadi. Bu talqinni P.Nyumark “tarjima metodlari butun matnga bog‘liq bo‘ladi, tarjima usullari esa matndagi gaplar va tilning kichikroq birliklari uchun foydalaniladi,” [23] degan fikrida ham ko‘rishimiz mumkin.

N.Qambarov tarjima transformatsiyalaridan foydalanish salmog‘i asliyat va tarjima tillarining bir-biriga qardosh yoki qardosh emasligiga bog‘liqligi, ularning tarjima munosabati bilan kontaktga kirgan ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, pragmatik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi borasida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan.[24] Olimning fikricha, tarjima jarayonida eng

---

[16] Vinay J. P. and J. Darbelnet. Stylistique comparée du français et de l’anglais, París: Georgetown University Press, 1977. – 331 p.; Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. – Philadelphia: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.

[17] Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва: Международные отношения, 1975. – 240 с.; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – Москва: Международные отношения, 2004. – 424 с.; Qambarov N.M. Tarjima transformatsiyalari va til kontaktlari (nazariy masalalar). Fledu.uz O‘zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali. – Toshkent, 2016.

[18]Albir H. La traductología: lingüística y traductología. Trans 1, 1996. – 696 p.

[19] Yo‘ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – B. 46.

[20] Albir H. La traductología: lingüística y traductología. Trans 1, 1996. – pp.151–160.

[21] Yo‘ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022. – B.59.

[22] Нелюбин Н.Н. Толковый переводоведческий словарь. – М.: Флинта, Наука, 2003. – 320 с.

[23] Newmark P. Approaches to Translation. –Hertfordshire: Prentice Hall, 1988.– P. 81

[24] Qambarov N.M. Tarjima transformatsiyalari va til kontaktlari (nazariy masalalar). Fledu.uz O‘zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali. – Toshkent, 2016.

ko‘p qo‘llanadigan tarjima transformatsiyalari: so‘z tartibining o‘zgarishi, so‘z qo‘shish, so‘zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari hisoblanadi. Transformatsiyalar sonining kam bo‘lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko‘pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi.

U.Yo‘ldoshev tarjima transformatsiyalarini lingvistik va madaniy tasniflar bo‘yicha o‘rganadi. Uning fikricha, “lingvistik transformatsiyalar matnning sintaktik tuzilishi va semantik mazmunini saqlash uchun qo‘llaniladi. Bunda tarjimonning lingvistik kompetensiyasi va ijodiy yondashuvi katta rol o‘ynaydi”.[25] Madaniy transformatsiyalar, odatda, asliyat matnidagi madaniy xususiyatlar va kontekstual birliklarni tarjima tili hamda madaniyatiga moslashtirish jarayonida qo‘llaniladi. Bunday o‘zgarishlar, asosan, asl matnning madaniy mazmunini adekvat yetkazishga xizmat qiladi hamda tarjima auditoriyasi uchun tushunarlilikni ta’minlaydi.

G.Odilova tarjima jarayonida lingvistik va madaniy transformatsiyalarni ajratib ko‘rsatadi. Uning fikricha, lingvistik transformatsiyalar leksik, sintaktik va stilistik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.[26] Mazkur transformatsiyalar tarjimonning matn mazmuni va uslubini saqlab qolish uchun qo‘llaydigan metodlaridir. Madaniy transformatsiyalar esa madaniy moslashtirish yoki tarjima qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga asl matnning madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi.

Tarjima transformatsiyalarining mavjud ilmiy tasniflari qiyosiy tahlil qilinib, ayrim tasniflarda transformatsiyalarni guruhlash mezonlarining turlicha ekanligi va ayrim hollarda lingvistik sathlar bilan funksional xususiyatlarning o‘zaro qorishib ketishi kuzatildi. Shu asosda tadqiqot doirasida tarjima transformatsiyalarini fonetik, leksik, sintaktik, lingvokulturologik va pragmatik guruhlarga ajratish taklif etildi.

1-jadval

Tarjima transformatsiyalarining tasnifi

№	Transformatsiya turi	Qo‘llanish sohasi	Usullar
1	Fonetik transformatsiyalar	Antroponimlar, toponimlar, brend nomlari va boshqa atoqli otlarni berishda	1) Transkripsiya 2) Transliteratsiya
2	Leksik transformatsiyalar	Frazeologizmlar, metaforalar, terminlar va obrazli birliklar tarjimasida	1) So‘z o‘zlashtirish 2) Kalkalash 3) Umumlashtirish 4) Aniqlashtirish 5) Ekvivalentlik 6) Analogiya 7) Sinonimiya
3	Sintaktik transformatsiyalar	Gap tuzilishi, nisbat shakllari, struktur moslashuv jarayonida	1) Transpozitsiya 2) Inversiya

[25] Yo‘ldoshev U. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida: fil.fan.b.f.dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – B. 41.

[26] Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Monografiya. – T.: Mumtoz so‘z, 2011. – B. 34.

			3) Reduksiya 4) Segmentatsiya 5) Integratsiya
4	Lingvokulturologik transformatsiyalar	Realiyalar, tarixiy va milliy birliklar, urf-odatlar tarjimasida	1) Tasviriy tarjima 2) Kompensatsiya 3) Adaptatsiya
5	Pragmatik transformatsiyalar	Dialoglar, undovlar, nutq aktlari, uslubiy birliklar tarjimasida	1) Eksplikatsiya 2) Implikatsiya

Kommunikativ tarjima yondashuvida tarjima ikki til va ikki madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi murakkab lingvokulturologik jarayon sifatida qaraladi. Bunda tarjimonning vazifasi faqat asliyat birliklarini boshqa tilda ifodalash bilan cheklanmay, uning mazmuni, kommunikativ maqsadi va pragmatik ta’sirini tarjima tilida imkon qadar adekvat qayta yaratishni ham talab etadi. Mazkur tamoyillar jahon tarjimashunosligi vakillari – E.Nayda, P.Nyumark, J.Vermer, G.Toury, L.Venuti [27] hamda o‘zbek olimlari – G‘.Salomov, Q.Musayev, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudov [28] va boshqalarning ilmiy qarashlariga tayanadi.

Kommunikativ tarjimaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

a) qabul qiluvchiga yo‘naltirilganlik – tarjima qilingan matn o‘quvchining til va madaniyat darajasiga mos bo‘lishi;
b) funksional ekvivalentlik – xabar maqsadi, ta’sir kuchi va uslubiy xususiyatlarini saqlab qolish;
c) lingvistik va lingvomadaniy moslashtirish – zarur hollarda transformatsiyalar orqali matnni o‘quvchiga tushunarli shaklda yetkazish;
d) kommunikativ effektga erishish – asliyat matn qabul qiluvchida qanday ta’sir uyg‘otsa, tarjima matni ham xuddi shunday ta’sirga ega bo‘lishi lozim.

Tarjimon ongida kechadigan kognitiv jarayonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita va to‘liq kuzatish imkoniyati cheklangan. Shu sababli tarjimonning kognitiv faoliyatini tavsiflashda turli xil nazariy modellarni ishlab chiqish orqali o‘rganiladi. Tarjima jarayoni modeli deganda “asliyat matnini to‘liq yoki uning muayyan qismini tarjima qilish jarayonini amalga oshirish mumkin bo‘lgan bir qator aqliy operatsiyalarning shartli tavsifi” tushuniladi.[29]

[27] Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965. – 103 p.; Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.; Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.; Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969. – 218 p.; Reiss K., Vermeer H.J. Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie. – Tübingen: Niemeyer, 1984. – 245 p.; Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 311 p.; Venuti L. The Translator’s Invisibility. – London: Routledge, 1995. – 353 p.

[28] Salomov G‘. Tarjima nazariyasi masalalari. – T.: Fan, 1983. – 240 b.; Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2008. – 320 b.; Mahmudov N. Til va tafakkur masalalari. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. – 256 b.; Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – T.: Fan, 2010. – 384 b.; Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: Fan, 2006. – 296 b.

[29] Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.

2-jadval

Funksional tarjima modellari va taklif etilgan TTTEB modelining qiyosiy tahlili

Model	Asosiy maqsadi	Jarayon markazi	TTTEB modelining farqi
E.Nayda	Tarjima jarayonini tavsiflash	Tahlil – Tarjima – Qayta ishlash	Transformatsiya tanlash mezonlari va natijani baholash alohida bosqich sifatida berilgan.
J.Haus	Tarjima sifatini baholash	Soha – Munosabat – Muloqot shakli – Janr – Matnning individual funksiyasi	Tarjima qanday amalga oshirilishini ham baholaydi.
K.Nord	Tarjima maqsadi (Skopos) va strategiya	Tarjima topshirig‘i – Tahlil – Maqsad – Tarjima strategiyasini tanlash – Tarjima – Sodiqlik	Aynan qaysi leksik transformatsiya qachon qo‘llanishi tizimlashtirilgan.
I.Alekseyeva	Tarjimonning kognitiv faoliyati	Asliyat – Tahlil – Interpretatsiya – Tarjima strategiyasini tanlash – Tarjima – tahrirlash va baholash	Leksik transformatsiyalar algoritmi ko'rsatilgan.
G‘.Salomov	Tarjima jarayonining umumiy bosqichlari	Asl nusxani idrok etish – Interpretatsiya – Qayta ifodalash	Transformatsiyalar tasnifi va qo‘llash shartlari ochilgan.

Taklif etilgan “Tahlil – Tafovut – Transformatsiya – Ekvivalentlik – Balans” (TTTEB) modeli mavjud tarjimashunoslik nazariyalarining oddiy yig‘indisi yoki erkin kombinatsiyasi hisoblanmaydi. Mazkur model E.Nayda, J.Haus, K.Nord, I.Alekseyeva hamda G‘.Salomov tomonidan ilgari surilgan metodologik yondashuvlarning ilmiy asoslariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning tarkibiy elementlarini yangi funksional ketma-ketlikda integratsiya qilish orqali leksik transformatsiyalarni tanlash va qo‘llashning amaliy algoritmini taklif etadi. Xususan, avvalgi modellarda tarjima jarayonining umumiy bosqichlari, kommunikativ maqsadi yoki sifatini baholash mezonlari yoritilgan bo‘lsa, mazkur modelda asliyat va tarjima tillari tizimlari o‘rtasidagi semantik, uslubiy va lingvomadaniy tafovutlarni aniqlash, ularga mos transformatsiyani tanlash, qo‘llangan transformatsiyaning ekvivalentlik darajasini tekshirish hamda tarjimada semantik, uslubiy va kommunikativ muvozanat ta’minlash mustaqil metodologik bosqichlar sifatida tizimlashtirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Leksik tarjima transformatsiyalarini badiiy asarlar misolida tahlil qilish.”** deb nomlangan bo‘lib, unda badiiy tarjimaning leksik muammolar tipologiyasi, ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada ekvivalentlik, o‘zlashtirish, transkripsiya, transliteratsiya transformatsiyalaridan foydalanish xususiyatlari borasida so‘z yuritilgan.

V.Sdobnikovning fikricha, tadqiqotchilar tarjima jarayoni turli sharoit, xilma-xil kommunikativ vaziyat va faoliyat turlari doirasida amalga oshirilishini to‘liq anglab yetmaydilar; shu sababli muayyan matn tarjimasini barcha kommunikativ vaziyatlar uchun birdek “yaxshi” yoki “yomon” deb baholab bo‘lmaydi.[30] Shunga qaramay, badiiy tarjimani baholashda quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

Denotativ mezon (semantik hodisalarning qayta ifodalanishini baholash);

konseptual (tarjima matnidagi madaniy va konseptual jihatdan muhim tushunchalar hamda madaniy o‘ziga xoslikni baholash);

diskursiv (tarjima matnining kommunikativ tuzilishini baholash);

konnotativ (matnning uslubiy jihatdan mosligini baholash) va pragmatik (tarjima matnining intellektual, hissiy va estetik ta’sirini baholash).[31]

Badiiy tarjimada uchraydigan leksik qiyinchiliklarni muayyan guruhlarga ajratish ularni ilmiy asosda tahlil qilish va samarali tarjima strategiyalarini belgilash uchun metodologik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizda badiiy tarjimada uchraydigan leksik muammolar quyidagi guruhlarga ajratildi:

1. Denotativ leksik muammolar (ko‘p ma’nolilik, sinonimiya).
2. Konnotativ leksik muammolar (emotsional va stilistik bo‘yoqdorlik).
3. Madaniy leksik muammolar (realiyalar, tarixiy birliklar).
4. Terminologik leksik muammolar.

Badiiy tarjimada jargon so‘zlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi ular badiiy matn tarjimasida ko‘plab uchraydi. Jargon – ma’lum bir ijtimoiy guruh a’zolarining o‘zaro muloqot yuritishida xizmat qiladigan nutq turi deb qaraladi.[32]

Jargon birliklarini tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni quyidagi misollar asosida tahlil qilamiz: *Where you learned that half-Nelson, Martin answered. Anyway, you’re going to have a black eye.* [1;127] – *Siz ikki qavatlama nelsonni qayerda o‘rgangan bo‘lsangiz, o‘sha yerda, – deb javob berdi Martin. Har holda ko‘zingizning osti ko‘karib chiqishi muqarrar!* [2;129]

J.Londonning “Martin Iden” asarida uchraydigan *half-Nelson* iborasi kurash sportiga oid maxsus texnika bo‘lib, kurash va sambo kabi yakkakurash turlarida qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan va samarali parter usullaridan biri. Raqibning yelkasi orqali boshqarib, uni yelkalari bilan gilamga yotqizish (kurashda) yoki ushlab turish (sambo) uchun mo‘ljallangan harakatini anglatadi. Bu ibora ingliz tilida sport jargoni, kontekstda jangovar harakatni bildiradi. Tarjima matnida esa ushbu ibora *ikki qavatlama Nelson* tarzida so‘zma-so‘z tarjima qilingan. *Ikki qavatlama* degan ifoda o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan, chalkashtiruvchi konstruksiya hisoblanadi. Agar ikki tomonlama tarjima qilsak *double Nelson* so‘zi hosil bo‘ladi, ushbu ibora sport terminologiyasida butunlay boshqa texnikani bildiradi, ya’ni ikki qo‘l bilan bajariladigan usulni. Shu sababli, *half-Nelson* kabi terminlarni tarjima qilishda faqat

[30] Сдобников В. В. Оценка качества перевода в аудитории и реальной жизни // Перевод и сопоставительная лингвистика. 2015. №11. – С. 41–45.

[31] Сапожникова О. С. Критика перевода: поиски объективных критериев // Вестник НГЛУ. 2009. № 6. – С. 11-18.

[32] Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов – 2– ое изд., стереотип. – М.: Совет. энцикл., 1969. – С. 47

so‘z darajasida emas, balki ularning funksional yuklamasi va kontekstual ishlatilishini hisobga olish zarur. Asliyatda ifodalangan mazmunni tarjima tilida aks ettirish uchun ushbu parchani quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq: *Siz kurashning yarim-Nelson usulini qayerda o‘rgangan bo‘lsangiz, o‘sha yerda, – deb javob berdi Martin. – Har holda ko‘zingizning osti ko‘karib chiqishi muqarrar!* (Muallif tarjimasi)

M.Baker o‘zining “In other words: A Coursebook on Translation” asarida tarjima jarayoniga tegishli turli bosqichlarda ekvivalentlik g‘oyasini va tarjimaning barcha o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. U ekvivalentlikni quyidagicha tasniflaydi:

1) so‘z darajasidagi ekvivalentlik. So‘z darajasining ekvivalentini aniqlashda tarjimon bitta so‘zni ko‘rib chiqishda jins va vaqt kabi bir qator omillarga e’tibor berishi lozim bo‘ladi;

2) grammatik ekvivalentlik tillararo har xil grammatik kategoriyalar (son, zamon, aspekt, nisbat, shaxs-son, jins) doirasida namoyon bo‘ladi;

3) matn ekvivalentligiga ma’lumot va ketma-ketlik bo‘yicha asliyat matni va tarjima matni o‘rtasida tenglik kuzatilganda erishiladi. Tarjimon quyidagi uchta: “matn turi”, “tarjima maqsadi” va “kitobxon auditoriyasi” kabi omillarga tayanib ish yuritish lozim bo‘ladi;

4) pragmatik ekvivalentlik orqali tarjimon kitobxonlarga boshqa millat madaniyatini tarjima matnida akslantirib berishga harakat qiladi;

5) so‘z birikmalari (so‘z darajasidan keyingi daraja) ekvivalentligi. Ushbu darajada tarjimon alohida so‘z emas, balki kollokatsiyalar, frazeologik birliklar va barqaror so‘z birikmalarini yaxlit holda tarjima qiladi. Bunda birlikning umumiy ma’nosi, uslubiy bo‘yoqdorligi va konnotativ yuklamasi saqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.[33]

Mazkur nazariy qarashlar badiiy tarjimada, ayniqsa, muayyan tarixiy davrga xos ijtimoiy maqom, saroy lavozimi va tabaqaviy munosabatlarni anglatuvchi leksik birliklarni tarjima qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklarda lug‘aviy ma’no bilan bir qatorda tarixiy-madaniy axborot ham mujassam bo‘lganligi sababli, noto‘g‘ri tanlangan muqobil asliyatdagi tushunchaning funksional xususiyatini o‘zgartirishi mumkin. Ushbu holatni quyidagi misol asosida ko‘rib chiqamiz: *He was the prince; his special comrades were guards, chamberlains, equerries, lords and ladies in waiting, and the royal family.*[7;8] – *U endi rostakam shahzoda edi, yaqin o‘rtoqlari uning muhofizlariga, kamergerga, shtalmeysterga, saroy a’yonlariga, kanizaklariga va podshoh oilasi a’zolariga aylanishdi-qo‘yishdi.*[9;8] – *O‘zi shahzoda bo‘ldi; eng yaqin o‘rtoqlari shaxsiy soqchi, xazinachi, shtalmeyster, saroy ahli, saroy xonimlari, qirolning yaqin tug‘ishganlari bo‘lishdi.*[8;9]

Asliyatdagi matnda shahzoda va uning atrofida faoliyat yurituvchi eng yaqin kishilar, ya’ni saroy a’zolari tilga olingan bo‘lib, ular rasmiy lavozim va ijtimoiy maqomga ega shaxslar sifatida tasvirlangan. *Chamberlains* so‘zining tarjimasi birinchi variantda *kamerger* shaklida to‘g‘ri aks ettirilgan bo‘lsa-da, ikkinchi

[33] Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – Taylor & Francis e– Library, 2011. – P. 9-271.

variantda *xazinachi* deb berilishi terminologik nuqtayi nazardan biroz g‘alizlikni yuzaga keltiradi. Chunki kamerger lavozimi moliyaviy emas, balki marosim va tashkiliy vazifalar bilan bog‘liq. Tarjimadagi yana bir g‘alizlik esa *equerries* so‘zining tarjimasida kuzatiladi. Har ikkala tarjimada ham bu so‘z *shtalmeyster* deb berilgan. Holbuki, *shtalmeyster* – otxonaga mas’ul shaxs, *equerries* esa qirollik oilasiga tashrif va kundalik xizmat ishlari bo‘yicha mas’ul bo‘lgan saroy zobiti. Ushbu ikki tushuncha semantik va funksional jihatdan mutlaqo farq qiladi. Shuningdek, *lords and ladies in waiting* birikmasining tarjimasida ham ayrim kamchiliklar mavjud. *Lords* so‘zining *saroy a’yonlari* shaklida berilishi to‘g‘ri bo‘lsa-da, *ladies in waiting* so‘zining birinchi tarjimada *kanizaklar* deb berilishi tarjima g‘alizligi hisoblanadi. Chunki *kanizak* so‘zi xizmatkorlik maqomini anglatib, *lady in waiting* tushunchasining oliy tabaqadagi hurmatli saroy xonimi ma’nosiga mos tushmaydi. Ikkinchi variantdagi *saroy xonimlari* ifodasi esa mazkur birlikning ma’nosini to‘liq aks ettirgan. Shu nuqtayi nazardan, jumlaning mazmunini o‘zbek kitobxoni uchun tushunarliroq va funksional jihatdan muvofiqroq tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: *U shahzoda bo‘lib, uning atrofida doimo qo‘riqchilar, saroy xodimlari, mulozimlar, aslzodalar, oliynasab xonimlar va qirollik oilasi vakillari bo‘lardi.* (Muallif tarjimasi)

Tarjima jarayonida ekvivalentlikning 5 ta turi mavjud:

1. Shakliy (formal) ekvivalentlik
2. Dinamik ekvivalentlik
3. Madaniy ekvivalentlik
4. Funksional ekvivalentlik
5. Tasviriy ekvivalentlik

Har bir tur tarjimaning maqsadi va kontekstiga qarab qo‘llaniladi. Bu transformatsiyalar tarjima matni va asliyat matni o‘rtasidagi moslikni ta’minlash uchun zarurdir.

Justa Holz-Manttari tarjimani “translatorisches Handeln” (tarjima harakati) sifatida talqin qilib, uni maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyat deb izohlaydi. Unga ko‘ra, tarjima jarayonida buyurtmachi, tarjimon, adresat va boshqa ishtirokchilar o‘zaro funksional aloqada bo‘ladi va tarjimaning muvaffaqiyati matnlararo formal moslik bilan emas, balki kommunikativ vazifaning bajarilishi bilan belgilanadi.[34] Bu yondashuv funksional ekvivalentlikni asoslashda muhim o‘rin tutadi, chunki u tarjimada asosiy e’tiborni adresatga ta’sir va funksiyaga qaratadi.

M.Snell-Hornby tarjimani ko‘p omilli, integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qiladi. U tarjimashunoslikni faqat lingvistik doirada emas, balki madaniyat, matn tipi, kommunikativ vaziyat va funksional omillar bilan birgalikda o‘rganish zarurligini asoslaydi[35]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ekvivalentlik tushunchasi ham

[34] Holz–Mänttäri J.Translatorisches Handeln: Theorie und Methode. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1984. – P. 36-41.

[35] Snell–Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1988. – P. 64-69.

faqat til birliklari darajasida emas, balki matnning umumiy kommunikativ funksiyasi doirasida aniqlanadi.

3-jadval

Badiiy tarjimada transkripsiya, transliteratsiya va so‘z o‘zlashtirish usullarining qiyosiy tavsifi (“Oq So‘yloq”, “Martin Iden”, “Shahzoda va gado” asarlarining misollari asosida)

Transkripsiya	Transliteratsiya	So‘z o‘zlashtirish
Edward Tudor – Eduard Tyudor (*Shahzoda va gado*)	Bill – Bill (*Oq so‘yloq*)	My Lord – Milord (*Shahzoda va gado*)
Tom Canty – Tom Kenti (*Shahzoda va gado*)	Stetson – Stetson (*Martin Iden*)	Earl – Graf (*Shahzoda va gado*)
Hertford – Gertford (*Shahzoda va gado*)	Jack London – Jek London (*Oq so‘yloq*)	Baron – Baron (*Shahzoda va gado*)
Mackenzie – Makkenzi (*Oq so‘yloq*)	Standard Oil – Standard Oil (*Martin Iden*)	Psychology – Psixologiya (*Martin Iden*)
Swinburne – Svinbern (*Martin Iden*)	San Francisco – San-Fransisko (*Martin Iden*)	Socialism – Sotsializm (*Martin Iden*)
Oakland – Oklend (*Martin Iden*)	Morse – Mors (*Martin Iden*)	Quinine – Xinin (*Oq so‘yloq*)

Jadvalda keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, transkripsiya, transliteratsiya va so‘z o‘zlashtirish tarjimada turli vazifalarni bajaruvchi mustaqil usullardir. Transkripsiya va transliteratsiya asosan atoqli otlar (shaxs ismlari, joy nomlari, tashkilot va brend nomlari)ni tarjima tilida qayta ifodalashga xizmat qiladi. Transkripsiyada birlikning talaffuzi, transliteratsiyada esa uning grafik shakli imkon qadar saqlanadi. Har ikkala usulda ham tarjimonning asosiy maqsadi referentni o‘zgartirmasdan nomni tarjima tiliga ko‘chirishdan iborat bo‘ladi. So‘z o‘zlashtirish esa bundan farqli ravishda, chet tilidagi birlikni tarjima tilida avvaldan mavjud va me’yorlashgan o‘zlashma birlik orqali ifodalash yoki zarurat tug‘ilganda uni o‘zlashgan shaklda qo‘llashga asoslanadi. Demak, transkripsiya va transliteratsiya asliyat birliklarining shakliy (fonetik yoki grafik) xususiyatlarini saqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, so‘z o‘zlashtirish tarjima usuli qabul qiluvchi tilning lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan o‘zlashma birlikni tanlash orqali mazmunni tabiiy va me’yoriy tarzda ifodalashni ta’minlaydi. Aynan ushbu funksional farq so‘z o‘zlashtirishni transkripsiya va transliteratsiyadan alohida tarjima usuli sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning “**Ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada sintaktik-leksik birliklarning qo‘llanishi”** deb nomlangan uchinchi bobida badiiy tarjima matnlarida umumlashtirish, aniqlashtirish, kalkalash, mantiqiy sinonimiya va analogiya transformatsiyalaridan foydalanish usullari yoritilgan. Tadqiqotimizda leksik transformatsiyalarni nafaqat struktur jihatdan, balki kommunikativ yondashuv asosida tizimlashtirganmiz. Ushbu holatda 3 jihatni asosiy parametr sifatida qabul qilganmiz:

a) tarjima qilinayotgan matnning funksional maqsadi;
b) adresatning kognitiv kompetensiyasi;

c) asliyat va tarjima tillarining lingvomadaniy moslik darajasi.

Tadqiqotning empirik bazasini ingliz adabiyotining mashhur namunalaridan olingan badiiy matnlar hamda ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari tashkil etdi. Xususan, tadqiqot korpusi tarkibiga “The Prince and the Pauper”, “Martin Eden” hamda “White Fang” asarlarining inglizcha matnlari va ularning o‘zbek tilidagi tarjima variantlari kiritildi. Tadqiqot davomida jami 300 dan ortiq tarjima fragmentlari tahlil qilinib, ularda qo‘llangan transformatsiyalar lingvistik va funksional mezonlar asosida qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

Badiiy tarjimada umumlashtirish va aniqlashtirish leksik transformatsiyalarning muhim turlaridan biridir. Umumlashtirish – tarjimada so‘z yoki iboraning ma’nodagi konkretligini kamaytirish, aniqlashtirish esa uni kengaytirish yoki chuqurlashtirish orqali yangi semantik yondashuv yaratishdir.[36] Y.Retskerning fikricha, tarjima jarayonida bu transformatsiyalar nafaqat til farqlarini, balki dunyoqarashdagi tafovutlarni ham ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv tarjimaning faqatgina tilshunoslik mezonlariga asoslanmaganligini, balki chuqur kognitiv va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqligini anglatadi. Ya’ni, tarjima nafaqat til birliklarini moslashtirish, balki ikki til va madaniyat o‘rtasidagi dunyoqarash tafovutlarini bartaraf etish vositasidir.

4-jadval

Umumlashtirish usulining funksional imkoniyatlari va cheklovlari

Umumlashtirish transformatsiyasining funksional ta’siri	**Izoh**
1.Kommunikativ samaradorlikni oshiradi	Murakkab, madaniy yoki leksik jihatdan spesifik birliklarni kengroq semantik maydonga ko‘chirish orqali matnning qabul qilinuvchanligini ta’minlaydi hamda auditoriya uchun pragmatik tushunarlilikni kuchaytiradi.
2.Lingvokulturologik tafovutlarni minimallashtiradi	Tarjima tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti mavjud bo‘lmagan realiyalar va madaniy belgilarni umumiyroq kategoriya bilan almashtirish orqali adekvat kommunikativ effektni saqlaydi.
3.Matnning struktur-semantik soddaligini ta’minlaydi	Ko‘p komponentli yoki konnotativ ma’noga ega birliklarni umumiyroq tushunchaga aylantirish orqali matnning stilistik bo‘yoqdorligini kamaytiradi va idrok etish jarayonini yengillashtiradi.
Umumlashtirishning cheklovlari	**Izoh**
1.Semantik yo‘qotish xavfi	Haddan tashqari umumlashtirish natijasida asliyat matnidagi differensial semalar, individual stilistik belgilar va milliy-madaniy xususiyatlar yo‘qolishi mumkin.
2.Kontekstual adekvatlikning susayishi	Umumiy kategoriya tanlanishi natijasida matnning diskursiv muhitidan uzilish va pragmatik noto‘g‘ri talqin yuzaga kelish ehtimoli ortadi.

[36] Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва: Международные отношения, 1974. – С. 73–75.

Kalka (frans. calque – nusxa, taqlid) – boshqa til lug‘aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko‘chirish (so‘zma-so‘z tarjima qilish) natijasida yuzaga kelgan so‘z, atama yoki birikma.[37] Kalka boshqa til birliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ularning tarkibiy qismlarini ona tilidagi mos vositalar yordamida tarjima qilish orqali yuzaga keladi. Bu jihat bilan u oddiy o‘zlashuvdan farq qiladi, chunki kalkalarda tashqi shakl emas, balki semantik model va strukturaviy qurilish ona tiliga ko‘chiriladi. Kalkalash tarjima transformatsiyasi (kalk) tarjima jarayonida asl tilning so‘z birikmasi yoki iborasi tarkibiy qismlarini birma-bir tarjima qilish orqali yangi so‘z yoki iborani hosil qilish usuli.

Bunga qarama-qarshi fikrni o‘zbek olimasi M.Raupova ilmiy izlanishlarida keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra, asliyatdagi so‘z yoki so‘z ma’nosining biror qismini tarjima tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib saqlash o‘zlashma tarjima hisoblanib, u asosida yaratilgan so‘z kalka deb ataladi.[38] Ammo bizningcha, kalkalash o‘z mohiyatiga ko‘ra, so‘zma-so‘z tarjimaning bir turi bo‘lsa-da, bunday tarjima jarayonida ma’lum kontekst yoki til qoidalari hisobga olinadi. Kalkalash transformatsiyasi tarjimada yangi leksik birliklar yaratish, yangi ma’nolarni ifodalash va milliy tilda o‘zga madaniyatlar tushunchalarini kiritishda qo‘llanadi. Bunda tarjimon o‘zak til birligini yoki tuzilishini saqlab qoladi va uni tarjima qilinayotgan tilning qoidalariga moslashtiradi.

5-jadval

Badiiy matn tarjimasida kalkalash transformatsiyasining turlari

Kalkalash turi	**Ta’rif**	**Misollar**
1. Leksik kalka	Asliyat tilidagi kompleks leksik birlikning tarkibiy qismlari izchil tarjima qilinib, tarjima tilida yangi semantik birlik (neologizm) shakllantiriladi.	*a)Foolishly, in the past, he had conceived that all well-groomed persons above the working class were persons with power of intellect and vigor of beauty*[39] ***Working class – ishchilar sinfi.*** *b) English law! – up, all, with your cups! – now all together and with a cheer! – drink to the merciful English law that delivered her from the English hell!*[40] ***English law – Ingliz qonuni***
2.Frazeologik kalka	Asliyat tilidagi frazeologizmlar tarkibiy qismlarini so‘zma–so‘z tarjima qilish orqali semantik ekvivalentlikni	*a)I take to it kindly,* ***like a duck to water****. – O‘rganish menga xuddi* ***suvdagi o‘rdakdek*** *juda oson kechadi.*[41] *b)You must be* ***a fish out of the water –*** *Siz bu yerda xuddi* ***suvdan chiqqan baliqqa o‘xshab qolasiz.***[42]

[37] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 867 b.
[38] Raupova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada transformatsiya hodisasi: lingvokulturologik tadqiq: filol. fan. b.f.dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – B. 21.
[39] London J. Martin Eden. – London: Macmillan & Co., Ltd., 1909. – P. 109.
[40] Twain M. The Prince and the Pauper; A Tale for Young People of All Ages. – Boston: James R. Osgood and Company, 1882. – P. 74.
[41] London J. Martin Iden / Q.Mirmuhamedov tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 38.
[42] London J. Martin Iden / Q.Mirmuhamedov tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 102.

	saqlagan holda yangi ibora hosil qilinadi.	
3. Semantik kalka	Asliyatdagi so‘zning chet tilidagi ma’nosi ta’siri bilan paydo bo‘lgan ifodasi.	*a)But while he belied Arthur’s description, and appeared a gentle lamb rather than a wild man.*[43] ***A gentle lamb – yuvosh qo‘zichoq***

V.Komissarov tarjimada sinonimlarning o‘rni haqida alohida to‘xtalib, sinonimlar tarjimon uchun ifodaviy imkoniyatlarni kengaytirishini ta’kidlaydi. Tarjimada sinonimlarni tanlash orqali asl matnning mazmuni, uslubi va emotsional ohangini saqlab qolish muhimdir. Badiiy tarjimalarda sinonimlar yordamida ma’noni boyitish va uslubiy ekvivalentlikka erishish mumkin.[44]

L.Venuti tarjimada tarjimonning ijodiy subyekt sifatidagi rolini ta’kidlab, analogiyani badiiy va madaniy sodiqlikni ta’minlovchi muhim strategiya deb hisoblaydi.[45] Shu sababli analogiya tarjimada shakliy moslikdan ko‘ra mazmuniy, estetik va kommunikativ uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Analogiyaning badiiy tarjimada qo‘llanishi va uning obrazlilikni qayta yaratishdagi ahamiyatini quyidagi misolda tahlil qilamiz: *But there was one particular nightmare from which he suffered – the clanking, clanging monsters of electric cars that were to him colossal screaming lynxes*.[4;116] – *Ammo mudhish bir voqea qayta-qayta tushiga kirib uni qiynardi: tushiga tram vaylar kirar va xuddi qulog‘ini qomatga keltirib chinqirayotgan bahaybat qoplonlar singari guldiros solib, g‘ijirlab uning ustiga bostirib kela boshlardi*.[5;119] – *Ammo tez-tez takrorlanadigan bir qo‘rqinchli tush unga qattiq azob berardi: Oq So‘yloq daxshatli shovqin solib, shaqirlab yonidan o‘tib ketayotgan tramvaylarni ko‘rdi.* [6;118]

Asliyatda uchraydigan *colossal screaming lynxes* iborasi kuchli metaforik obraz bo‘lib, elektr tramvaylarining Oq So‘yloq ongidagi qo‘rquv tasviridir. 1-tarjimada bu obraz *bahaybat qoplonlar* deb berilgan. Silovsin – Shimoliy yarimsharning sovuq iqlim zonalarida, xususan Shimoliy Amerika va Yevroosiyo o‘rmonlarida yashovchi yovvoyi mushuksimon hayvondir. G‘arb adabiyoti, xususan Yevropa nasrida silovsin ko‘pincha timsolli hayvon sifatida tasvirlanadi. O‘zbek xalq ertaklari, maqollar, afsonalar va dostonlarida ushbu jonivor tilga olinmaydi. Ikkinchi tarjimada asliyatdagi metafora soddalashtirilgan holda *shaqirlab o‘tib ketayotgan tramvaylar* tarzida bayon qilingan. Bu esa analogiya usuli kamchiligiga olib kelgan bo‘lib, muallifning ruhiy dramatizm va hayvoniy qo‘rquv o‘rtasidagi psixologik tafovutni ifodalovchi obrazli qatlamni tushirib qoldirgan. Tarjimada metaforik struktura emas, balki referensial qatlam ustuvor bo‘lib qolgan. Asliyatdagi obrazlilikni saqlash bilan birga uni o‘zbek kitobxoni uchun tushunarliroq analogiya vositasida qayta yaratish maqsadida quyidagi tarjima variantini taklif etish mumkin: *Ammo uni bir dahshatli tush qayta-qayta ta’qib qilardi: quloqni yorar darajada shaqillagan elektr vagonlari uning tasavvurida vahshiyona chinqirayotgan, bahaybat arslonlarga aylanib, ustiga bostirib kelayotgandek tuyulardi.* (Muallif tarjimasi) Arslon obrazi o‘zbek xalq ongida chuqur ildiz otgan. U badiiy va

[43] London J. Martin Eden. – London: Macmillan & Co., Ltd., 1909. – P. 20.
[44] Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа. 1990. – С. 153.
[45] Venuti, L. Strategies of Translation. In M. Baker (Ed.), Encyclopedia of Translation Studies. London: Routledge, 1998. – pp. 240 – 244.

og‘zaki adabiyotda keng qo‘llanilgan, dostonlar, xalq rivoyatlari va maqollarda faol yashab kelayotgan timsoldir. Ushbu obraz o‘zbek o‘quvchisi ongida darhol tanilib, tramvaylar timsolida berilgan zo‘ravonlik, dahshat va shovqinli hujumni tasvirlashda kerakli emotsional ta’sirni ta’minlay oladi. Tarjimada “colossal screaming lynxes” iborasini “bahaybat arslonlar” deb berish orqali analog transformatsiyadan foydalanilgan. Demak, tarjima jarayonida o‘xshash kontekstlar, metaforik tuzilmalar, sinonimik va antonimik munosabatlar, shuningdek, madaniy kontekstlarning hisobga olinishi asliyat mazmunini adekvat va ta’sirchan qayta yaratishga xizmat qiladi. Mazkur lingvistik va lingvomadaniy vositalar orqali tarjimon matnning nafaqat semantik qatlamini, balki uning uslubiy, emotsional va estetik xususiyatlarini ham saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, analogiyadan ongli va asosli foydalanish tarjimada mazmuniy yo‘qotishlarning oldini olib, kommunikativ ekvivalentlikni ta’minlaydi. Natijada tarjima matni o‘quvchi uchun tushunarli, tabiiy va badiiy jihatdan jozibador bo‘lib, asarning g‘oyaviy-badiiy ta’sir kuchini yangi til va madaniy muhitda samarali yetkazishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida 20 ga yaqin tarjima usullariga sharh bergan holatda, ularning asliyat tilidagi matnni tarjima tiliga semantik jihatdan aniq, uslubiy jihatdan mos va madaniy kontekstga adekvat tarzda qayta yaratishdagi ahamiyatini nazariy hamda amaliy misollar bilan tahlil qildik. Badiiy tarjima ikki tilning lingvokulturologik, tipologik jihatlarini e’tiborga olishni taqozo etganligi bois tadqiqotimizda tillarni tizimli taqqoslashga bag‘ishlangan ilmiy ishlar hamda soha olimlari fikrlaridan tadrijiy foydalanildi.

Badiiy matnlarda kommunikativ xususiyatlarni tahlil qilishda biz lingvopragmatik va diskursiv yondashuvga tayandik hamda kommunikativlik quyidagi parametrlar asosida o‘rganildi:

1. Kommunikativ maqsad parametri: muallifning g‘oyaviy-estetik niyati, adresatga ta’sir ko‘rsatish strategiyasi, baholovchi pozitsiyasi va implitsit ma’no qatlamlari aniqlab olindi. Tarjimada ushbu niyatning saqlanish darajasi alohida baholandi.

2. Muallif-adresat modeli: matndagi nutq subyekti (muallif) va qabul qiluvchi (adresat) o‘rtasidagi kommunikativ munosabat tahlil qilindi. Tarjimada adresatga moslashtirish (adaptatsiya) darajasi o‘rganildi.

3. Milliy-madaniy realiyalar, ijtimoiy konnotatsiyalar, baholovchi leksika va emotsional-ekspressiv birliklar pragmatik ekvivalentlik nuqtayi nazaridan tekshirildi. Leksik transformatsiyalar aynan pragmatik adekvatlikni ta’minlash vositasi sifatida talqin qilindi.

4. Dialog va monologlarda nutq aktlari (buyruq, iltimos, tahdid, istehzo va boshqalar) aniqlanib, ularning tarjimada transformatsiyaga uchragan jihatlari ko‘rib chiqildi.

5. Metafora, epitet, ironik konstruksiyalar, dialogik intensivlik kabi vositalar kommunikativ ta’sir nuqtayi nazaridan baholandi. Transformatsiyalar stilistik ekvivalentlikni ta’minlash vositasi sifatida tahlil qilindi.

Umuman olganda, badiiy matnlarning kommunikativ xususiyatlari intensionallik, muallif-adresat munosabati, pragmatik yuklama, nutq aktlari va

uslubiy ekspressivlik kabi parametrlar asosida kompleks tahlil qilindi. Ushbu yondashuv leksik transformatsiyalarning nafaqat semantik, balki kommunikativ-funksional ahamiyatini ham aniqlash imkonini berdi.

UMUMIY XULOSA

1. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada leksik transformatsiyalarning qo‘llanishi ikki tilning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari, kontekst hamda badiiy matnning kommunikativ maqsadi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijasida leksik transformatsiyalar asliyatdagi mazmunni tarjima tilida qayta ifodalash vositasigina emas, balki uning semantik invariantni saqlagan holda, pragmatik adekvatlik va funksional ekvivalentlikni ta’minlovchi ko‘p bosqichli kognitiv-operatsion mexanizm ekanligi aniqlandi.

2. Badiiy tarjimada leksik birliklarni transformatsiya qilish jarayonining izchil bosqichlarini ifodalovchi *“Tahlil – Tafovut – Transformatsiya – Ekvivalentlik – Balans”* modeli ishlab chiqildi. Modelda asliyat birligini semantik va kontesktual tahlil qilish, tillararo tafovutni aniqlash, unga mos transforrmatsiyani tanlash hamda semantik-uslubiy muvozanatni ta’minlash yagona transformatsion jarayonining o‘zaro bog‘liq bosqichlari sifatida belgilandi.

3. Tadqiqot jarayonida tarjima transformatsiyalarining mavjud lingvistik tasniflari ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlar materiallari asosida qayta tizimlashtirilib, transformatsiya turini tanlashda leksik birlikning kontekstdagi ma’nosi, hamda kommunikativ adekvatlikni saqlashdagi funksional roli va milliy-madaniy mazmuni o‘zaro bog‘liq mezonlar sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi.

4. Ingliz va o‘zbek tillarining leksik-semantik tizimlari qiyosiy-lingvistik tahlil asosida o‘rganilib, denotativ ma’nolari o‘zaro mos kelgan holatlarda ham ularning konnotativ, emotsional-ekspressiv va madaniy xususiyatlari to‘liq muvofiq kelmasligi aniqlandi. Bunday tafovutlarni tarjimada bartaraf etishda leksik transformatsiyalardan foydalanish semantic mazmunni saqlash bilan birga kommunikativ va pragmatik adekvatlikni ta’minlashga xizmat qilishi ilmiy asosda dalillandi.

5. Konseptual ekvivalentlik kategoriyasi funksional-semantik va kommunikativ-pragmatik mezonlar asosida qayta interpretatsiya qilindi. Ekvivalentlik absolyut identiklik emas, balki kontekstual-relevativ adekvatlikni ta’minlovchi dinamik kategoriya sifatida asoslandi.

6. Badiiy tarjimada leksik muammolar tipologiyasi ishlab chiqilib, polisemantik birliklar, frazeologik konstruksiyalar, metaforik strukturalar va lingvokulturologik realiyalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik muammolar transformatsion model asosida tahlil qilindi.

7. Aniqlashtirish va umulashtirish transformatsiyalarining funksional-semantik salohiyati tizimli ravishda o‘rganilib, ularning referensial aniqlikni ta’minlash, semantik muvozanatni saqlash hamda konnotativ qatlamni adekvat rekonstruksiya qilishdagi roli ilmiy asosda izohlandi.

8. O‘zlashtirish, transkripsiya, transliteratsiya va analogiya usullarining ingliz tilidagi leksik hamda lingvomadaniy birliklarni o‘zbek tiliga ko‘chirishdagi funksional xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan aniqlandi. Ularning qo‘llanish samaradorligini baholashda shakily moslik, semantic ekvivalentlik va madaniy adekvatlik asosiy mezonlar sifatida tizimlashtirilib, ularning lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishdagi o‘rni aniqlandi.

9. Leksik transformatsiyalar badiiy matnning semantik strukturasini qayta quruvchi hamda diskursiv relevansni ta’minlovchi operatsion mexanizm sifatida talqin etildi. Ularning kommunikativ-intensional yuklamasi empirik material tahlili asosida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

10. Semantik, funksional va pragmatik parametrlar bo‘yicha leksik transformatsiyalarning variativligi aniqlanib, ularning adresatga yo‘naltirilgan interpretativ effektni shakllantirishdagi roli ochib berildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

СОТИБОЛДИЕВА ГУЛЧАРОС МУРАТ КИЗИ

КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДОВ С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК)

10.00.06 – Сравнительное литературоведение и переводоведение

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2024.3.PhD/Fil5128

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском) размещен на веб-странице Научного совета www.uzswlu.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: **Йулдошев Улугбек Равшанбекович**
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ведущая организация:

Защита диссертации состоится «_____»_____2026 года в _____часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес:100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № _____). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район улица Кичик халка йули, дом 21А.Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № ____ от «____» _____ 2026 года).

А.А.Насиров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Х.Б. Самигова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Д.М.Тешабаева
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом переводоведении всё большее внимание уделяется функциональным подходам к исследованию художественного перевода в единстве семантических, прагматических, стилистических и лингвокультурологических факторов, направленным на воссоздание в тексте перевода коммуникативной функции оригинала и его художественно-эстетического воздействия. Вместе с тем сохраняются проблемы, связанные с естественным воспроизведением в переводе образных, эмоционально-экспрессивных и национально-культурных единиц художественного текста, сохранением денотативного и коннотативного содержания оригинала, а также определением чётких критериев выбора лексических трансформаций. Решение данных проблем обусловливает необходимость проведения сравнительно-семантического и функционального анализа лексических единиц оригинала и перевода, выявления межъязыковых различий, систематизации соответствующих им трансформаций, а также научного обоснования их возможностей в обеспечении семантической эквивалентности, стилистической гармонии и коммуникативной адекватности.

Современный этап развития мирового переводоведения характеризуется расширением исследовательской парадигмы художественного перевода за пределы традиционного лингвистического анализа и формированием новых направлений, основанных на применении корпусных технологий, цифровых инструментов, возможностей искусственного интеллекта, а также на изучении реакции аудитории, воспринимающей переводной текст. В настоящее время в качестве приоритетных направлений развиваются выявление закономерностей перевода на материале масштабных параллельных корпусов и обоснование полученных результатов с помощью количественно-статистических методов; оценка переводческих решений с учётом контекста, жанровой специфики и фактора адресата; сравнительное изучение результатов человеческого, машинного и основанного на искусственном интеллекте перевода. Развитие данных направлений обусловливает необходимость выявления языковых и культурных различий, возникающих в процессе перевода, на основе эмпирического материала, объективной оценки эффективности переводческих решений, а также интеграции традиционных методов качественного анализа с современными эмпирическими и цифровыми методами исследования художественного перевода.

В нашей стране проводится системная работа по совершенствованию системы изучения и преподавания иностранных языков, повышению международного статуса государственного языка, расширению масштабов перевода зарубежной литературы на узбекский язык и произведений

узбекской литературы на иностранные языки, а также по подготовке профессиональных переводчиков и повышению их квалификации. Особое внимание к совершенствованию научно-методических основ профессиональной переводческой деятельности подтверждается положением, обозначенным Президентом Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёевым: «Создание методик профессионального перевода с государственного языка на иностранные языки и с иностранных языков на государственный язык также станет одной из его основных задач» [1]. Реализация поставленных задач обусловливает необходимость совершенствования переводческих механизмов, направленных на сохранение семантических, стилистических и национально-культурных особенностей оригинала в художественном переводе, системного изучения лексико-семантических различий между английским и узбекским языками, разработки критериев выбора и применения лексических трансформаций, а также научного обоснования их функциональных возможностей в обеспечении коммуникативной адекватности.

Диссертация определенно служит для осуществления задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»[2], № УП-58 от 10 апреля 2026 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций» [3], № УП-98 от 26 мая 2026 года «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения» [4], постановлением № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах»[5], постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 376 от 18 мая 2018 года «О мерах по совершенствованию системы перевода и издания лучших образцов мировой литературы на узбекский язык, а также шедевров узбекской литературы на иностранные языки»[6] и другими.

---

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан». www.lex.uz.

[2] Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года». www.lex.uz.

[3] Указ Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2026 года № УП-58 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций». www.lex.uz.

[4] Указ Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2026 года № УП-98 «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения». www.lex.uz.

[5] Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах». www.lex.uz

[6] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2018 года № 376 «О мерах по совершенствованию системы перевода и издания лучших образцов мировой литературы на узбекский язык, а также шедевров узбекской литературы на иностранные языки». www.lex.uz.

